

**“Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasining assistenti, Alimov Baxromning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti Veterinariya meditsinasi ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabalariga “Veterinariya akusherligi” fanidan “Hayvonlarda bo’g’ozlikni ultratovish tekshirish (UTT) yordamida aniqlash” mavzusida ochiq dars mashg’uloti ishlanmasiga**

## **TAQRIZ**

“Veterinariya akusherligi” fanidan “Hayvonlarda bo’g’ozlikni ultratovish tekshirish (UTT) yordamida aniqlash” mavzusi fan dasturi va ishchi o’quv dasturiga mos keladi. Mavzu reja, ko’rgazmali qurollar, tayanch iboralar va asosiy mazmunidan iborat. Mavzuning rejasi butun mazmundan kelib chiqqan holda berilgan. Mashg’ulotda foydalaniladigan ko’rgazmali qurollar sanab o’tilgan. Mavzuning asosiy mohiyatini belgilaydigan tayanch iboralar yozilgan. Mavzuning asosiy qismi batafsil berilgan. Bunda darslik va o’quv qo’llanmalardan foydalanilgan.

Dars mashg’uloti bo’yicha tayyorlangan taqdimotida “Hayvonlarda bo’g’ozlikni ultratovish tekshirish (UTT) yordamida aniqlash” mavzusi batafsil yoritilgan bo’lib, katta va mayda hayvonlarda bo’g’ozlikni UTT apparati yordamida aniqlash, hayvonlarni tekshirishda ishlatiladigan asboblarni, tekshirish texnikasini o’rgatish usullari, bilim, ko’nikma va malakalarni shakillantirishga oid rasmlar va chet el adabiyotidan ham foydalanilgan bo’lib aynan ushbu mavzuga mos keladi.

Assistent B.Alimovning “Veterinariya akusherligi” fanidan “Hayvonlarda bo’g’ozlikni ultratovish tekshirish (UTT) yordamida aniqlash” mavzusidagi ochiq dars mashg’uloti matni hozirgi zamon innovasion ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti,  
Vetsanitariya va urchitish patologiyasi  
laboratoriya mudiri, v.f.d., katta i.x.



*B. Alimov*

**O.U.Qo’ldoshev**